



BOSHLANG'ICH SINF ONA TILI DARSLARIDA "UYUSHIQ BO'LAKLAR" MAVZUSINI O'RGATISHDA INTERFAOL METODLAR VA MUSTAQIL ISHLARDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI

¹Teshaboyev Dilmurod Rahmadjonovich
f.f. bo'yicha falsafa doktori(PhD), dotsent

²Usmonova Muattarxon Xayrullajon qizi
FarDU 2-bosqich magistranti

ARTICLE INFO

Received: 25th May 2023

Accepted: 30th May 2023

Online: 31th May 2023

KEY WORDS

Uyushiq bo'laklar, interfaol metod, pedagogik texnologiya, "Qarmoq" o'yini, "Muhandis" o'yini, "Biz birinchi" metodi mustaqil ish.

ABSTRACT

Mazkur maqolada o'quvchilarning ham og'zaki, ham yozma nutqiy malakalarini nazarda tutgan holda gapning uyushiq bo'laklarini o'qitishda interfaol metodlar va mustaqil ishlarning samarasi haqida fikr yuritamiz.

Hozirgi ta'lim-tarbiya sohasida keng rivojlanib borayotgan yo'nalishlardan biri zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llashdan iborat. Ma'lumki, ta'lim – tarbiya jarayoni katta avlod tomonidan o'z bilim va tajribalarini o'sib kelayotgan avlodga o'rgatishdan iborat bo'lib, bu jarayonda asosan inson hayoti uchun zarur axborotlarni avloddan avlodga uzatish amalga oshiriladi. Insoniyat hayoti axborotlar bilan chambarchas bog'liq. Boshqacha aytganda, insonning har bir harakati axborot olish yoki uzatish yoki undan foydalanish yoki uni o'rganish, o'zlashtirish, saqlash va boyitishdan iborat.

O'zbek tilida gapning uyushiq bo'laklari yozuvchilarning asarlarida ma'ruzachilarning nutqida uslubiy vosita sifatida juda keng qo'llanmoqda. Chunki ular fikrni aniq, to'li, obrazli ifodalaydi, shuningdek, nutqqa ifodalilik, ko'tarinkilik berish uchun xizmat qiladi. Ular ifodani ixcham tuzish, unda his hayajon holatlarni to'la aks ettirish, stilistik ravonlik va ixchamlik singari xususiyatlar bilan tilimizda katta ahamiyatga ega bo'lgan grammatik kategoriyalardan hisoblanadi. Shuning uchun bu sintaktik hodisa ifoda vositasi sifatida nutqimizning deyarli hamma turida, ayniqsa, yozma nutq turlarida, badiiy adabiyotning turli janrlarida ancha keng qo'llaniladi va dolzarb hodisa hisoblanadi.

O'zbek tilida gap bo'laklarining uyushib kelishi ancha uzoq tarixga ega. Bir umumiy bo'lakka tobe bog'lanuvchi, bir so'roqqa javob bo'lib, bir xil sintaktik vazifani bajaradigan, o'zaro teng bog'lovchilar yoki sanash intonatsiyasi orqali birikkan ikki yoki undan ortiq gap bo'laklari gapning uyushuq bo'laklari deyiladi.[1]

Uyushiq bo'laklarning ko'plab qo'llanishini XI asrda va undan so'ng yaratilgan asarlarda ko'plab uchratamiz. Bu hodisa barcha turkiy xalqlar, shu jumladan, o'zbek xalqi uchun ham mushtarak bo'lgan turk- runiy yozuvlarida ham, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur



asarlarida ham ko'plab uchraydi. Demak, hozirgi zamon o'zbek tilida uyushiq bo'laklarning qo'llanishi tasodifiy hol bo'lmay, tarixan shakllanib kelayotgan o'ziga xos sintaktik hodisadir.

Ma'lumki, boshlang'ich sinf o'quvchilari gapning bosh va ikkinchi darajali bo'laklari bilan 2-3 sinflardayoq tanishadilar. IV sinfda esa o'quvchilarning gap bo'laklari yuzasidan olgan bilimlarini mustahkamlab boriladi va amaliy mashqlar bajariladi.

Boshlang'ich sinflarda ta'lim samaradorligini, o'quv predmetlarining ta'lim-tarbiyaviy va amaliy ahamiyatini o'ttirishda, o'quvchilarning o'quv predmetlarini o'rganishga bo'lgan qiziqishlarini uyg'otishda, boshqa metodik masalalar bilan o'quvchilarni tanishtirish alohida ahamiyat kasb etadi. Bu vazifani ijobiy hal qilishning imkoniyatlaridan biri darslarda yangi pedagogik texnologiyalar, interfaol metodlardan va mustaqil ishlardan unumli foydalanishdir.[2]

Yangi pedagogik texnologiyaning afzalligi zamon sinovidan o'tib, interfaol darsning sifat va samaradorligini oshirishda muhim omil ekanligi o'z isbotini topmoqda. Bu borada tajriba to'plagan tatqiqotchilar pedagogik texnologiya darsning muvaffaqiyatlarini kafolatlovchi omil ekanligini ta'kidlab, ommaning diqqat e'tiboriga havola qilmoqdalar. Yangi pedagogik texnologiya ta'limning ma'lum maqsadga yo'naltirilgan shakl, usul va vositalar tizimidir. Texnologiya tushunchasi texnikaviy taraqqiyot bilan bog'liq xolda fanga 1872- yilda kirib keldi va yunoncha ikkita so'zdan "Texnos" – san'at, hunar va "Logos" – fan so'zlaridan tashkil topib "Hunar fani" ma'nosini anglatadi. Shu ma'noda texnologiyani ma'lum ma'noda san'atga qiyos qilinadi. Chunki san'at intuitsiyaga asoslanadi, texnologiya esa fanga asoslanadi. Lekin juda ko'p faoliyat sohalari dastlab san'atdan boshlanadi va texnologiya bilan tugaydi.

Pedagogik texnologiya- ta'lim metodlari, usullari, yo'llari hamda tarbiyaviy vositalar yig'indisi, u pedagogik jarayonning tashkiliy-usubiy vositalari majmuidir.[3]

Darhaqiqat, Interfaol metod-ta'lim jarayonida o'quvchilar hamda o'qituvchi o'rtasidagi faollikni oshirish orqali o'quvchilarning bilimlarni o'zlashtirishini faollashtirish va shaxsiy sifatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Interfaol metodlarni qo'llash dars samaradorligini oshirishga yordam beradi. Interfaol ta'limning asosiy mezonlari: norasmiy bahs-munozaralar-o'tkazish, o'quv materialini erkin bayon etish va ifodalash imkoniyati, o'quvchilar tashabbus ko'rsatishlariga imkoniyatlar yaratilishi, kichik guruh, katta guruh, sinf jamoasi bo'lib ishlash uchun topshiriqlar berish, yozma ishlar bajarish va boshqa metodlardan iborat bo'lib, ular ta'lim- tarbiyaviy ishlar samaradorligini oshirishda o'ziga xos ahamiyatga ega

Boshlang'ich sinf ona tili darslarida foydalanish mumkin bo'lgan interfaol metodlar xususida to'xtalamiz

"Biz birinchi" metodi. Bu usuldan foydalanish jarayonida o'quvchilar guruhlariga bo'linadilar va mashqlar asosida jadvallar tuziladi. Bunday ishlar o'quvchilarga umumiy tushunchalarni o'rgatish uchun juda foydali bo'ladi. Jadvalning bir ustuniga turli xil gaplar yoziladi, ikkinchi ustuni bo'sh qoldiriladi. Bolalar jadvalni to'ldirishda gapning qaysi bo'lagi uyushib kelayotganligini aniqlay olishi kerak va shu asosda jadval to'ldiriladi. Bu ishlar o'quvchilarning mantiqiy tafakkurini o'stiradi.

"Muhandis" o'yini o'quvchilarni guruhlariga bo'lib, darsda o'tilgan mavzuni yoki yangi mavzuni mustahkamlash qismida yoki darsdan tashqari vaqtda o'tkazilishi mumkin. O'qituvchi avvaldan darsga tayyorgarlik ko'rib, qog'ozdan yoki penoplast bo'lakchalaridan "g'ishtchalar" yasaydi va bu "g'ishtchalarga" savol yozilgan qog'ozchalarni yopishtirib chiqadi.



“g’ishtchalar” soni o’quvchilar soniga teng yoki ko’p bo’lishi kerak, guruhlarga “minora” yoki “devor” qurishlari uchun joy ajratiladi. Har bir guruhdan bittadan bola chiqadi va “g’ishtcha” ni olib savolni o’qiydi. Agar savolga bolalar to’g’ri javob topsalar o’zlarining “maydoncha” lariga “g’isht” ni teradilar. Agar noto’g’ri javob bersalar, o’qituvchi “g’ishtcha” ni olib qo’yadi. O’yin shu yo’sinda barcha o’quvchilar bittadan “g’ishtcha” olib bo’lgunlarga qadar davom etadi. “Qurilish maydonchasi” da eng ko’p g’isht torgan o’quvchilar guruhi g’olib hisoblanadi. “G’ishtcha”larga quyidagi savollarni yozish mumkin:

– “Quyosh – o’zidan nur yorug’lik issiqlik taratadigan jism”. *Ushbu gapda uyushiq bo’laklar orasida qanday tinish belgisi ishlatiladi?*

– “She’rlarim bilan yurtdoshlarimga goh darddosh, goh zavqdosh bo’ldim”. *Ushbu gapda uyushiq bo’laklar qanday bog’langan?*

– “Toshkent, Samarqand, Buxoro, Xiva shaharlari juda qadim zamonlardan dunyoga mashhur bo’lgan”. *Ushbu gapda qaysi bo’lagi uyushib kelayotganligini aniqlang.*

“Qarmoq” o’yini: Bu o’yindan barcha darslarda qo’shimcha savollar berishda foydalanish mumkin. Baliqchalar shaklidagi qog’ozchalarga savollar yoziladi va bir chetiga temir qistirg’ichlar qistiriladi. Qarmoq shaklidagi tayoqchalarning uchiga ip va ipning uchiga magnit bo’lakchasi bog’lab qo’yiladi. O’quvchilar bu “qarmoqlar” vositasida “baliqchalar” dan birini tutib olishlari va undagi savolga javob berishlari lozim bo’ladi.

Boshlang’ich sinf o’quvchilarini mustaqil fikrlashga o’rgatuvchi usullardan yana biri - mustaqil ish metodidir. Nafaqat boshlang’ich sinflarda, balki umuman ta’lim sohasida keng qo’llaniladigan o’quvchilarning mustaqil ishlari ta’lim samaradorligini oshiruvchi vosita sifatida doimiy ravishda tadqiqotchilar diqqat markazida bo’lib kelgan. Metodist olimlar mustaqil ishlardan dars jarayonida keng foydalanishni doimo yoqlab chiqqanlar. Chunki o’quvchilarning bilimlarni egallash va mustaqil fikrlashga o’rgatish, avvalambor, mustaqil ishlarni bajarish, oldida turgan muammo va masalalarning yechimini topish jarayonida shakllanadi.

«Mustaqil ishlar deganda biz, avvalo, o’qituvchining bevosita rahbarligida uyushtiriladigan hamda o’quvchilarning ona tilidan egallaydigan nazariy bilimlarini mustahkamlash va ko’nikmalarni takomillashtirishga xizmat qiladigan, ma’lum maqsadga qaratilgan faol ongli faoliyatni tushunamiz»[4].

«... mustaqil ishlar ta’lim-tarbiyaning ajralmas qismi hisoblanadi. Uning o’ziga xos xususiyati o’quv topshiriqlarining o’qituvchi ishtirokisiz, bevosita o’quvchi tomonidan bajarilishi bilan belgilanadi va asosan matn ustida ishlash orqali amalga oshiriladi, qo’shimcha adabiyotlardan samarali foydalanishni nazarda tutadi»[5]

Shu o’rinda mustaqil ishlar ham o’quvchilarning aqliy imkoniyatlarini namoyon qilishga imkon beradigan, o’qituvchining bilvosita va bevosita ishtirokida, ammo bevosita yordamisiz nazariy-amaliy materiallar ustida bajariladigan vazifalar bo’lib, o’quvchilarning nafaqat bilim darajalarini, balki ularning o’zlashtirgan bilimlarini amaliyotda qo’llay bilishlarini, mustaqil va mantiqiy fikrlash darajalarini aniqlash va shakllantirish imkoniyatini beradigan ongli amaliy faoliyatdir.

Dars jarayonida interfaol metodlarni qo’llash bilan birgalikda mustaqil ishlardan ham o’rinli foydalansak, mavzuni o’rgatishda samaradorlikka erishishimiz mumkin. Biz quyida



mavzular bilan bog'liq dars jarayonida foydalanish mumkin bo'lgan mustaqil ishlarning ayrim namunalari va turlari haqida fikr yuritamiz.

Bog'lovchilarsiz bog'langan gapning uyushiq bo'laklari bo'yicha qisqa

muddatga mo'ljallangan yozma ishlarni uyushtirish usuli. Bu usulni amalda qo'llashdan ko'zda tutilgan maqsad – bog'lovchilarsiz bog'langan uyushiq bo'laklar orasida vergulning ishlatilishi haqidagi o'quvchilarning bilimlarini yana bir bor sinab ko'rish, mustahkamlash va ana shu bilimlarni malakaga aylantirishdan iboratdir.

Biz quyida ana shunday xarakterdagi diktant namunalarini professor I.Rasulovning "Diktantlar to'plami" kitobidan keltirishni lozim ko'rdik.

Ta'kidiy va izohli diktant namunasi:

Namuna: Kishilar hayotida quvonch, xursandchilik, go'zallik chuqur o'rin olishi kerak. Niyatlarim, orzularim katta. To'tiqiz darrov uydin tarelka, tovoq, pichoq olib kirdi. Hirotidan talaygina shoirlar, mashshoqlar, rassomlar chiqayapti. O'qish, o'rganish, yaratish bizning sharaflari vazifamizdir. (27-bet).

O'quvchilarning egallagan bilim va malakalarini yana bir bor sinab ko'rishga katta imkoniyatlar yaratadigan qisqa muddatli ta'limiy xarakterdagi saylanma diktantlari ham mustaqil ishlarning bir turi sanaladi. Saylanma diktantlarning matni o'qituvchi tomonidan tanlanadi. Bunday diktant o'quvchida onglikni, uyushiq bo'lakli gapni tanlashda, ular tarkibida tinish belgilarining o'qilayotgan gapga diqqatini jalb etishni talab qiladi.

Saylanma diktant namunasi: Uyushib kelgan bo'laklarni alohida ajratib yozing, so'ngra ularni o'zi bog'lanib kelgan so'z bilan birga ko'chiring.

Namuna: Karnay, surnay, nog'ora ovozi dalani larzaga keltirmoqda. Soz va qarsak sadolari ostida Qumri, Norbibi, Qodirqul va boshqalar o'ynamoqda edi. Aksariyat qarsak va yallaga qo'shilgan va qo'shilmaganlar esa zavq bilan o'yinni tomosha qilmoqda edi. Botir bilan Bo'ston quvonganidan nima qilishini bilmay, goh qarsak chalar, goh yallaga qo'shildirdi.

"Gapning uyushiq bo'laklari" va "Uyushiq bo'laklarning bog'lovchilar yordamida bog'lanishi" mavzulari yuzasidan o'quvchilar egallagan bilimlarini sistemalashtirish va baholash uchun tarqatiladigan kartochkalar ham mustaqil ishlarning biridir.

Kartochka namunasi: Savollarga javob bering. Izohlash uchun misollar o'ylab toping.

- Uyushiq bo'lak deb nimaga aytiladi? Misollar keltiring.
- Uyushiq egaga misollar keltiring. Uning ta'rifini aytishga tayyorlaning.
- Uyushiq kesimning ta'rifini ayting va misollar keltiring.
- Uyushiq bo'laklar o'zaro qaysi bog'lovchilar orqali bog'lanadi? Misollar keltiring.
- Bog'lovchilardan oldin vergul qo'yilganda, uyushiq bo'laklar qaysi bog'lovchilar bilan bog'langan bo'ladi? Misollar ayting.
- Uyushiq bo'laklar va bog'lovchisi bilan bog'langanda ular orasiga nima uchun vergul qo'yilmaydi? Sababini izohlang va misollar keltiring.
- Uyushiq bo'lakli gaplar tuzish mumkin bo'lgan so'zlardan misollar keltira olasizmi?

Xulosa qilib aytishimiz mumkinki, ona tilini o'qitishni mazmunan va mohiyatan o'zgartirish, boshlang'ich sinfda o'quvchiga nimani o'qitish kerak? va qanday o'qitish lozim? degan har bir savolga tajribali va izlanuvchan o'qituvchilar javob topib borsalargina dars samaradorligi ta'minlangan hamda ko'zlangan maqsadga erishilgan bo'lardi. Ona tilidan ta'lim berishda o'qituvchi va o'quvchilar orasidagi munosabatlar to'g'ri yo'lga qo'yilsa, ya'ni o'quvchi



ta'lim jarayonining faol ishlovchisiga aylantirilsa, o'qituvchi esa bu jarayonning boshqaruvchisiga ayldantirib borilsa ona tili ta'lmining samaradorligini ta'minlangan bo'lardi.

O'quv topshiriqlarining sharti o'quvchilar faoliyatini faollashtirishning muhim vositasidir. Topshiriq sharti o'quvchilarni qiziqitirsagina, uni bajarish jarayonida faoliyat faol bo'ladi. Topshiriqning materiali faollikni qo'zg'atuvchi yana bir elementidir. O'quv materialining tematik rang-barangligi, o'quvchilarning bilimi va yosh xususiyatlariga muvofiq tushishi ularning faolligini oshirishga katta ta'sir ko'rsatadi.

Ona tili darslarida faqat standart topshiriqlar bilan chegaralanib qolmay, balki Interfaol metodlardan ham unumli foydalanishga ko'proq zarurat sezilmoqda. Interfaol metodlarlar o'quvchilarning fikrlash faoliyatini kuchaytiradi, uni bajarishga bo'lgan ishtiyoqini oshiradi. Bu esa faollikni ta'minlashning muhim omilidir.

Dars jarayonida olib boriladigan o'yinlarning qiziqarli va mavzuga oid bo'lishi o'quvchilarning darsda faol ishtirok etishiga olib keladi, mavzuni talab darajasida o'zlashtira oladi va o'qituvchi mavzuni tushuntirishda izchillikka erishadi.

References:

1. A.Nurmonov va boshlar. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Toshkent. "Ilm-ziyo". 2013.499-bet
2. A.Mirzaahmedov. «O'quvchilar faolligini oshirishda noan'anaviy darslar», Til va adabiyot ta'limi jurnali., 1996 y. 3-son.
3. Rahmatjonovich, T. D., & Botirovna, S. G. (2022). The Concepts of " Morality" and " Moral Education. *Journal of Ethics and Diversity in International Communication*, 2(4), 43-48.
4. MAMAJONOV, A., & Teshaboyev, D. (2018). Some thoughts about semantics of the complex sentencies. *Scientific journal of the Fergana State University*, 1(3), 76-78.
5. Тешабоев, Д. Р. (2022). Эргаш гапли қўшпредикатив бирликлар фалсафий нарса категорияси сифатида. *Ijtimoiy fanlarda innovasiya onlayn ilmiy jurnali*, 2(11), 25-30.
6. Тешабоев, Д. Р. (2022). Эргаш гапли қўшпредикатив бирликлар фалсафий мазмун категорияси сифатида. *Barqarorlik va yetakchi tadqiqotlar onlayn ilmiy jurnali*, 2(11), 51-55.
7. Тешабоев, Д. Р., & Ахмаджонова, М. Б. (2021). Son so'z turkumining boshlang'ich sinf darsliklarida ifodalangan shakllarini akt orqali tushuntirish. *Международный журнал искусство слова*, 4(1-1).
8. Teshaboyev, D. R. (2021). On the semantical analysis of the parypredicative units of complex following. *Theoretical & applied science*, (4), 390-392.
9. Тешабоев, Д. Р. (2020). Эргаш гапли қўшма гапларни шакллантиришда антитезанинг ўрни. *Международный журнал искусство слова*, 3(5).
10. Teshaboyev, D., & Xamdamova, M. (2022). Umumiy o'rta ta'lim maktabining boshlang'ich sinflarida ona tili o'qitish metodikasi. *Eurasian Journal of Academic Research*, 2(5), 823-827.
11. Rahmatjonovich, T. D., & Ruslanovna, M. B. (2022). Creative activity of students in the lessons. *Spanish Journal of Innovation and Integrity*, 6, 440-445.
12. Teshaboyev, D., & Abdumutalova, M. (2023). Boshlang'ich sinf darsliklarida qo'llangan xalq og'zaki ijodiyoti na'munalari ga doir ayrim mulohazalar. *Barqarorlik va yetakchi tadqiqotlar onlayn ilmiy jurnali*, 3(3), 37-42.



13. Dilmurod Teshaboyev, Mahfuza ma'rufjon qizi Ne'matova. 2023. [Boshlang'ich sinf darsliklarida qo'llangan harakat semali fe'llarning semantikasi](#) Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences 3(3), 1036-1044
14. G'ulomov A. Ona tili o'qitish printsiplari va metodlari. – T.: «O'qituvchi», 1992.
15. Sh. Abdullaeva. "Qiziqarli o'yinlar", Boshlang'ich ta'lim jurnali., 1995 y, 3-s.
16. Boshlang'ich sinf ona tili darslarida uyushiq bo'laklar mavzusini o'rgatishda izchillik. FDU.Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim ta'limning dolzarb masalalari: muammo va yechimlar va rivojlanish istiqbollari. Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari.18.11.2022 y. 227 b.
17. <https://sciencebox.uz/index.php/jis/article/view/4518/4068>
18. Усмонов, А., & Мўйдинов, Д. (2022). Фарғона Водийси Аҳолисининг Ижтимоий-Моддий Аҳволи. *Gospodarka i Innowacje*, 24, 760-764.
19. Усмонов, А., Мўйдинов, Д., & Юсупов, Ж. (2022). 1946-1991 ЙИЛЛАРДА ЎЗБЕКИСТОНДА ИЖТИМОЙ ТАЪМИНОТ ТИЗИМИ. *INTEGRATION OF SCIENCE, EDUCATION AND PRACTICE. SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL*, 3(6), 332-339.
20. Усмонов, А., Мўйдинов, Д., & Юсупов, Ж. (2022). 1946-1991 ЙИЛЛАРДА ЎЗБЕКИСТОНДА ИЖТИМОЙ ТАЪМИНОТ ТИЗИМИ. *INTEGRATION OF SCIENCE, EDUCATION AND PRACTICE. SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL*, 3(6), 332-339.
21. Усмонов, А., Мақсумов, Н., & Инамов, О. (2022). 1946-1991 ЙИЛЛАРДА ФАРҒОНА ВИЛОЯТИДА ИЖТИМОЙ ТАЪМИНОТ МУАССАСАЛАРИ ФАОЛИЯТИ. *INTEGRATION OF SCIENCE, EDUCATION AND PRACTICE. SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL*, 3(6), 366-372.
22. Usmonov, A. (2023). NOMODDIY MADANIY MEROS VA UNI MUHOFAZA QILISH MASALALARI. *European Journal of Interdisciplinary Research and Development*, 14, 325-330